“MEHROBDAN CHAYON” ROMANI VA UNING TARJIMASIDA PAYT ERGASHGAN QO’SHMA GAPLARNING SINTAKTIK EKVIVALENTLIGI.

Asrorxo’jayeva Saltanatxon Saidakbar qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Lingvistika (arab tili) yo‘nalishi magistratura 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: ***Umaro’va Hilola***

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida payt ergashgan qo’shma gaplarni o’zbek tilidan tarjima qilingan holda qanday ifodalanishi, tarjima jarayonida sintaktik – struktur ekvivalentlikni saqlash yoki konstruksion transformatsiyaga uchrashi, badiiy matn tarjimasida leksik – semantic ma’noni saqlash uchun fraza va iboralarning analoglaridan foydalanish o’rganildi. Tahlil jarayonida Abdulla Qodiriyning *“Mehrobdan Chayon”* romanining arab tiliga qilinga tarjimasidan foydalanildi.

Kalit so’zlar: Leksika**,** grammatika, sintaktik tuzilish, sintaktik ekvivalentlik, semantik ekvivalentlik, estetik ta’sir, ergashgan qo’shma gaplar, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, bog’lo’vchilar, yuklamalar, fraza, lingvistik transformatsiya.

СИНТАКСИЧЕСКАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ СЛОЖНОПОДЧИНЁННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ С ПРИДАТОЧНЫМИ ВРЕМЕНИ В РОМАНЕ “MEHROBDAN CHAYON” И В ЕГО ПЕРЕВОДЕ.

Аннотация: В данной статье исследуются способы выражения придаточных предложений времени арабского языка при переводе с узбекского языка, а также рассматриваются вопросы сохранения синтаксико-

структурной эквивалентности или возникновения конструкционных трансформаций в процессе перевода. Практическим материалом исследования послужит арабский перевод романа Абдуллы Кадыри *“Mehrobdan chayon”*.

Ключевые слова: лексика, грамматика, синтаксическая структура, синтаксическая эквивалентность, семантическая эквивалентность, эстетическое воздействие, сложноподчинённые предложения, переводоведение, художественный перевод, союзы, частицы, фраза, лингвистическая трансформация

SYNTACTIC EQUIVALENCE OF TEMPORAL ADVERBIAL CLAUSES IN THE NOVEL “MEHROBDAN CHAYON” AND IN ITS TRANSLATION

Abstract: This article examines the ways of expressing temporal adverbial clauses in Arabic when translated from Uzbek, focusing on whether structural and syntactic equivalence is maintained or structural transformation occurs during the translation process. The analysis is based on the Arabic translation of Abdulla Qodiriy’s novel *“Mehrobdan chayon”*

Keywords: lexicon, grammar, syntactic structure, syntactic equivalence, semantic equivalence, aesthetic effect, complex subordinate clauses, translation studies, literary translation, conjunctions, particles, idiom, linguistic transformation

Kirish

Arab tili boy tarixga ega bo’lib, uning til sifatida shakllanib, grammatikasining tizimlashtirilishiga uzoq vaqt ketgan. Arab tili grammatikasining shakllanishi Basra va Kufa maktablarining faoliyati bilan bog’liq bo’lib, unda Sibavayh, al-Mubarrad, Ibn Hishom kabi grammatik olimlarning hissasi katta ekanligi ta’kidlanadi.[1] O’zbek va arab tillari turli til oilalariga mansub bo’lib,

[1] Versteegh K. *A History of the Arabic Language*. – 2nd ed. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014. – P. 63–75.

ulardagi grammatik farqlar tarjima jarayonida matnlarning mazmunini muqobil grammatika bilan ifodalashni bir muncha qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababdan ko'pincha o'zbek tilidan arab tiliga tarjima qilingan matnlarni transformatsiyaga duch kelishini, gaplarda struktur ekvivalentlikni saqlashning qiyinlashishi kabi jarayonlarni kuzatamiz. Ammo matndagi grammatik o'zgarishlar muallifning shaxsiy uslubiga, badiiylik hamda mazmunga ta'sir qilmasligi lozim. Tarjima jarayonida yaqqol ko'zga tashlanuvchi farqli jihatlar, grammatikadagi muqobillardan foydalana bilish kabi holatlarni tahlil qilishda badiiy matn tarjimasi ajoyib manba bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "Mehrobdan chayon" romani o'zining yozilish uslubi, xalqimizning xarakterini ifodalashda frazemalarning rang- barangligi, matn mazmunini ifodalashda murakkab sintaktik qurilmalardan foydalanilganligi bilan keng ajralib turadi. Shu sababdan ushbu maqolada arab tili grammatikasidagi payt ergashgan qo'shma gaplarni tahlil qilar ekanmiz, aynan shu asarning 2024 yilda Sayyid Mahmud Sayyid Mubashshir tomonidan arab tiliga qilingan tarjimasidan foydalanamiz. Tahlil jarayonida ikki til sintaksisining qiyosiy jihatdan farqlari hamda o'xshash taraflariga alohida e'tibor beramiz. Ushbu maqolada payt ergashgan qo'shma gaplarning arabcha tarjimasida sintaktik ekvivalentlik masalasi o'rganilib, gaplardagi sodir bo'layotgan grammatik o'zgarishlar, ularni matn mazmuniga ta'siri ikki tildagi payt ergashgan qo'shma gaplarni qiyoslash orqali tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Ergashgan qo'shma gaplar murakkab grammatik birliklar bo'lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yuksak darajadagi mahoratni, tarjima qilinayotgan til doirasida chuqur bilimni talab qiladi. Mashhur adabiyotshunos va tarjimashunos P. Newmark tarjimada aniqlik va tabiiylik o'rtasidagi mutanosiblik masalasiga alohida e'tibor qaratadi.[2]. Yuqoridagi fikr asosida matnning mazmuni bilan bir qatorda undagi badiiy estetik muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi deyish

[2] Newmark. P. A textbook of translation. New York: Prentice Hall, 1988.

mumkin. Zero, matnning badiiyligi muallif aks ettirgan muhitni va millatning o'ziga xos jihatlarini aks ettirish yo'lida xizmat qiladi. Payt ergashgan qo'shma gaplar o'zbek tili doirasida bosh gapdagi ish harakatni bajarilish paytini ifodaydi, ular -ganda, -gach, -guncha kabi qo'shimchalar va qachon….o'shanda, endi…..ediki kabi nisbiy so'zlar yordamida yasaladi.[3] Arab tilidagi muqobilida عِنْدَمَا, لَمَّا, إِذَا, بَعْدَ / بَعْدَمَا أَنْ kabi yordamchi so'zlardan payt ergashgan qo'shma gaplarni hosil qilishda foydalaniladi.[4] Ikki til doirasida gaplarning vazifasi va ifodalovchi mazmuni o'xshash bo'lsa-da, ularda struktura jihatidan farqli tomonlar bor. Shu sababdan gaplarni tuzilishini to'liq saqlagan holda tarjima qilish murakkab ish hisoblanadi. "Mehrobdan chayon" romanidan olingan misollarni tahlil qilsak:

Nigor oyim dasturxon yozib, tovoqni Anvarning oldig'a qo'yar ekan, birdan piq-piq yig'lab yubordi...[5]

O'zbek tili grammatikasi asosida bu gap payt ergashgan qo'shma gap bo'lib, uning birinchi qismidagi ergash gap bosh gapdagi harakatning qachon sodir bo'lganini bildiradi va *qachon?* so'rog'iga javob beradi. Bunda **"**qo'yar ekan**"** konstruksiyasi va gapning umumiy mazmuni Nigor oyimning ma'lum bir harakatni amalga oshirayotgan paytida birdan yig'lab yuborganligini ifodalaydi. Ushbu gap arab tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

كَانَ أَنْوَرُ وَقْتَهَا يُشْعِلُ فَتِيلَ الْمِصْبَاحِ، فَقَرَّبَتْ نِيجَارِيمُ السُّفْرَةَ، وَفَجْأَةً بَدَأَتْ تَبْكِي[6]

Avvalambor, sintaktik nuqtai nazaridan tarjima original gapga ekvivalent emas. Chunki bu yerda tarjimon o'zbek tilidagi ergash gap + bosh gap munosabatini bir necha predikativ birliklarga ajratgan. Yuqoridagi konstruksiya asosida aslida payt ergashgan qo'shma gap bilan ifodalangan mazmun arabcha tarjimasida yordamchi fel (كَانَ) va teng bog'lovchilar yordamida (فـ va و) bog'langan qo'shma gapga aylangan.

[3] G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Holiyorov, J. Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
[4] N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
[5] A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent: Sharq, 2020.
[6] عبد الله قادري. *عقرب في المحراب*. الرياض: مركز الإعلام والدراسات العربية الروسية، 2024.

كَانَ أَنْوَرُ وَقْتَهَا يُشْعِلُ فَتِيلَ الْمِصْبَاحِ – o’sha paytda anvar chiroqpoyadagi shamni yoqayotgan edi

فَقَرَّبَتْ نِيجَارِيمُ السُّفْرَةَ – shunda Nigor oyim dasturxonni yaqinlashtirdi

وَفَجْأَةً بَدَأَتْ تَبْكِي – va birdan yig’lab yubordi.

Ko’rib turganimizdek bu konstruksiyada bir vaqtda bajarilgan uchta ish harakat bog’lovchilar yordamida ajratilgan uchta mustaqil predikativ sifatida ifodalangan. Arabcha tarjimaning so’zma – so’z holda o’zbek tiliga o’girsak:

“O‘sha paytda Anvar chiroqpoyaga sham yoqayotgan edi, shunda Nigor oyim dasturxonni yaqinlashtirdi va birdan yig‘lay boshladi.”

Ammo shu yerda tabiiy savol tug’iladiki, gapning originalida Anvarning chiroq bilan bog’liq harakati Nigor oyimning dasturxon bilan bog’liq harakati bilan birga bitta gapda ifodalanmagan, shu o’rinda qanday qilib arabcha tarjimasida umumiy mazmun yana bir gap bilan tuzilish jihatidan birlashtirildi? Bu savolga javob berish uchun kitobning o’zbek tilidagi originaliga yuzlanamiz:

Nigor oyim kirganda Anvar chiroqpoyaga sham’ yoqar edi. Nigor oyim dasturxon yozib, tovoqni Anvarning oldig‘a qo‘yar ekan, birdan piq-piq yig‘lab yubordi.[7]

Ushbu mazmun originalda yuqoridagidek mustaqil sodda yoyiq gap hamda payt ergashgan qo’shma gap bilan ifodalangan. Tarjimon esa matnni arab tiliga o’girish jarayonida ularni uchta mustaqil predikativ birliklarga ajratib, bog’langan qo’shma gap orqali ifodalagan. Bu holatni kontekstlararo sintaktik birlashtirish hodisasi deyish mumkin, ya’ni original matnda alohida ikki gap orqali berilgan mazmun arabcha tarjimada yagona sintaktik konstruksiya doirasida birlashtirilgan. Ushbu holat badiiy matn tarjimasida ko’p uchraydi, zero tarjimon oldida matnni grammatik jihatdan konstruksion aniqlik bilan emas, balki uning mazmun mohiyatini buzmasdan tarjima qilish birlamchi vazifa hisoblanadi. Bu haqida mashxur tilshunos E. Nida shunday degan “Tarjima jarayonida asosiy maqsad –

[7] A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. (Toshkent: Sharq, 2020.

manba tilidagi mazmunni va shaklni imkon qadar tabiiy va ekvivalent tarzda ifodalashdir.”[8] Fikrimizcha, yuqoridagi fikrda mazmun shakldan oldin kelishi ham uning birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. “Mehrobdan chayon”dan olingan namunaga kelsak, gap sintaktik konstruksiyaga yuz tutgan bo’lsada, muallif nazarda tutgan mazmun aniqlik bilan yetkazib berilgan.

Gapning leksik tarafiga to’xtalsak, o‘zbek tilidagi *“birdan piq-piq yig‘lab yubordi”* birikmasi arab tilida “وَفَجْأَةً بَدَأَتْ تَبْكِي” tarzida berilgan. Zero, badiiy matnlarda aynan qahramonlarning millati, jamiyatiga xos bo’lgan jihatlarni ochib berishda leksika katta o’rin tutadi. O’zbek tilidagi *“piq-piq yig‘lab yubordi”* iborasi bizning tilimizga hos bo’lib, u oddiy yig’ini emas, balki nisbatan hissiy, kuchliroq yig’ini ifodalaydi. Uni tarjimon arab tilida بدأت تبكي (yig‘lay boshladi) deb ifodalangan. Fikrimizcha, buni mazmunga umuman ta’sir ko’rsatmadi deyish biroz xato bo’ladi, zero “yig’lay boshladi” qo’shma feli yordamida gapning asl ko’rinishidagi emotsional – ekspressivlik ma’lum darajada neytrallashtirgan. Ammo shunday gaplar borki, ular ham tuzilishi, ham mazmuniy jihatdan yuqori darajadagi ekvivalentlikka yuz tutadi.

Ra’noni egasiga topshirmag‘uningizcha, quyulmaydirg‘anga o‘xshaydir.[9]

يبدو أنها لن تعقل حتى تسلمها لصاحبها[10].

Ushbu gap o‘zbek tilidagi payt ergash gapning arab tilidagi tarjimasida yuqori darajadagi sintaktik – semantik ekvivalentlikka yuz tutishiga yaqqol misol bo’ladi. O‘zbekcha *“Ra’noni egasiga topshirmag‘uningizcha, quyulmaydirg‘anga o‘xshaydir”* gapidagi ***-guncha*** shakli arab tilida **حتى** vositasidagi “حتى تسلمها لصاحبها” konstruksiyasi orqali ifodalangan. Har ikki tilda mazkur vositalar harakatning vaqt chegarasini bildiradi. Aynan حتى تسلمها لصاحبها – “*uni egasiga topshirmaguningizcha”*ning to’g’ridan to’g’ri tarjimasi bo’lib, faqatgina o’zbek tilida Rano deb ifodalansa, tarjimada birikma olmoshi bilan ifodalangan. Biroq gap

[8] Nida, Eugenia A. Toward a science of translating. Leiden: Brill, 1964.
[9] A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent: Sharq, 2020.
[10] عبد الله قادري. *عقرب في المحراب*. الرياض: مركز الإعلام والدراسات العربية الروسية، 2024.

komponentlari bir qancha farqli joylashish tartibiga ega: o‘zbek tilida payt ergash gap bosh gapdan oldin kelgan bo‘lsa, arab tilida bosh gapdan keyin kelgan. Shunga qaramay, ergashlik va payt munosabati to‘liq saqlangan. Leksik-semantik jihatiga e’tibor bersak, “o‘xshaydir” birligi “يبدو” so’zi bilan ifodalangan bo’lib, ular bir-biriga yuqori darajada mos kelgan, “egasiga” esa “لصاحبها” orqali deyarli to‘liq ekvivalentlashtirilganini ko’rishimiz mumkin. Shunga qaramay gapda bir qancha frazeologik mushkulliklar bo’lib, “Quyulmaydirg‘an” so’zi obrazli birlik hisoblanadi, u to’gridan to’g’ri ma’noni emas, balki ko’chma ma’noni ifodalaydi, “Quyulmaydirg‘an” orqali o’ziga kelish, aqlini yig’ish ma’nolari nazarda tutiladi. Tarjimon uni “لن تعقل” shaklida bergan bo’lib, shu yerda kichik frazeologik transformatsiya yuzaga kelgan. Tarjimon o‘zbekcha obrazni so‘zma-so‘z ko‘chirmasdan, arab tilida mazmunan mos bo‘lgan “o‘ziga kelmoq, aqlini yig‘moq” mazmunidagi birlikdan foydalangan. Natijada gapdagi obrazlilik saqlab qolinmagan bo’lsada, undagi semantik ma’no o’zgarmagan. Shu tariqa mazkur misol sintaktik jihatdan yuqori ekvivalentlik, leksik-frazeologik jihatdan esa qisman transformatsiyalangan ekvivalentlik holatini o’zida mujassam etgan.

Xulosa

Tilshunos J.C. Catford matn tarjimasida mazmuniy moslikning ahamiyati haqida gapirar ekan “Sintaktik o‘zgarishlar tarjimada til tizimlari farqi sababli yuzaga keladi, lekin ular mazmuniy moslikni buzmasligi kerak.”[11] degan fikrni bildirgan. Yuqoridagi birinchi namuna esa J.C Catfordning fikriga to’liq mos keladi. Tarjima jarayonida gapning tuzilishi bir qancha transformatsiyalarga yuz tutgan bo’lsada, bu mazmunga also ta’sir ko’rsatmagan. Fikrimizcha, aksincha muallif nazarda tutgan ma’noni to’g’ri ifodalash maqsadida tarjimon sintaktik o’zgarishlarga murojaat qilishga majbur bo’lgan. Ikkinchi gapga kelsak, uni tarjimada to’liq ekvivalent gapning ajoyib namunasi deyish mumkin, zero, tarjimon millatning o’zligini, mintalitetini o’zida ifodalo’vchi shoh asarni umuman boshqa til

[11] Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

oilasiga mansub tilga tarjima qilar ekan unda ham ekvivalentlikni saqlashi, ham sintaktik konstruksiyaga yuz tutib, gaplarni grammatik jihatdan soddashtirishi yoki murakkablashtirishi ammo shu jarayon davomida mazmunni saqlashga alohida e'tibor berishi ushbu ishni ulkan e'tibor va bilim natijasi ekanini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Versteegh K. A History of the Arabic Language. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014.
2. G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Holiyorov, J. Omonturdiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1979.
3. N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
4. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent: Sharq, 2020
5. Newmark. P. A textbook of translation. New York: Prentice Hall, 1988.
6. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.
7. Newmark, Peter. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.
8. عبد الله قادري. *عقرب في المحراب*. مركز الإعلام والدراسات العربية الروسية، الرياض: 2024.